

**IQTIDORLI O'QUVCHILARNI O'QITISH**

University of management and future technologies

2-kurs talabasi: Jumaqulova Nasiba Baxtiyor qizi

e-mail: jumaqulovanasiba10@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularni o'qitish hamda ularning imkoniyatlarni to'liq ochib berishga yordam beruvchi usullar ko'rsatilgan. Bu maqolada iqtidorli o'quvchilarni individual yondashuv, fikrlashini rivojlantirish va o'quvchini rag'batlantirish haqida yozilgan. Iqtidorli o'quvchilarni to'g'ri o'qitishda o'qituvchining roli va bu o'quvchilarni o'qitishdan maqsad ularga qanday usulda o'qitish to'g'ri kelishi, ular qanday o'qitish usulida zerikib qolmasligi hamda ularni o'qitish davomida ruhiy rag'batlantirib, o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash kerakligi haqida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *Iqtidorli o'quvchilar, ta'lim, o'qituvchi, qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, rivojlanish, o'qitish, yondashuvlar.*

Kirish.

Iqtidorli o'quvchilar- bu o'z tengdoshlariga qaraganda tezroq fikrlaydigan, yangi narsalarni tezda o'zlashtiradigan va o'z ijodkorlik qobiliyatini namoyon qila oladigan o'quvchilardir. Bular o'zlarining ajoyib qobiliyatlari bilan boshqa o'quvchilardan ajralib turadilar. Bunday o'quvchilarning qobiliyatlarni yanada rivojlantirishda o'qituvchining roli juda ham kattadir.

Iqtidorli o'quvchilar o'z tengdoshlariga nisbatan o'zlashtirishi juda ham kuchli bo'ladi va ularning mavzularni tezda ilg'ab olib mustaqil fikrladilar. Ularning bunday iqtidorini yanada rivojlantirib to'g'ri yo'lga yo'naltirishi jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Avvalo, har bir o'quvchining qaysi sohada iqtidori kuchli ekanligini aniqlab olish kerak. Masalan, kimdir fanlarda, kimdir musiqada, kimdir rassomchilikda, kimdir raqsda yokida yetakchilikda o'z qobiliyatini namoyish etsa, o'quvchini shu yo'nalishda qo'llab- quvvatlash kerak. Shu orqali uning iste'dodi yanda yuksalib, o'zi hamda jamiyatga foyda olib keladi.

**Iqtidorli o'quvchilarni o'qitishdagi asosiy maqsad.**

Iqtidorli o'quvchilarni o'qitishning asosiy maqsadi- ularning qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish, chuqur bilim berish, ijodiy fikrlashni rag'batlantirish va jamiyatga foyda keltiradigan yetuk shaxs bo'lib yetishishga yordam berish. Bunday o'quvchilarni bilimni yanada shakllantirish o'qituvchining sifatli ta'lim berishiga ham bog'liq. Iqtidorli o'quvchilar odatiy ta'lim ularga juda ham past darjadedek tuyulishi mumkin. Chunki ular keng fikrla oladilar va ularga esa keng fikrlashga undaydigan mashg'ulotlar bilan o'qitish zarur.

Iqtidorli o'quvchilarni eng muhim jihat, bu ularning ichki qiziqishlarini uyg'otish va o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini qo'llab- quvvatlashdir. Shuningdek, ularning tafakkurlashi, mantiqiy fikrlashi, va ijobiy yondashuvini hisobga olgan holda ular uchun turli mantiqiy loyihalar, muammoli vazifalar va mustaqil tadqiqotlar bilan foydalanib dars o'tishi lozim.

Shu kabi darslarning o'tilishidan maqsad faqat yuqori natijaga ega bo'lish emas, balki o'quvchining o'z imkoniyatlar eshikni to'liq ochib berish, uning ijtimoiy faolligni oshirish va kelajakda jamiyatga eng kerakli va foydali yetuk shaxs bo'lishni yaratishdir.

Iqtidorli o'quvchini o'qitishda o'qituvchini roli.

Iqtidorli o'quvchini o'qitishda o'qituvchini roli juda ham muhimdir. Chunki har bir o'quvchining iqtidori o'ziga hos bo'lib, uni to'g'ri yo'lga yo'naltira oladigan inson bu- o'qituvchidir. O'qituvchilik kasbi juda ham muhim hamda juda murakkab kasbdir. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo'l ko'rsatuvchi, rag'batlantiruvchi va uni qo'llab-quvvatlovchi insondir.

Iqtidorli o'quvchilarni o'qitishda o'qituvchi turli xil usullardan foydalanadi. Mustaqil izlashi uchun turli xildagi topshiriqlar beradi. Guruhda ishlashda esa liderlikni rivojlantiradi va ijodiy vazifalar orqali o'quvchini chuqur fikrlashi uchun metodikalar qo'llaydi. Shuningdek, o'qituvchi bu usullar orqali o'quvchining qiziqishlarni aniqlab, shu yo'nalishda vazifalar bera boshlaydi yokida qiziqishiga mos keladigan musobaqalarga ishtirok etishi uchun imkoniyatlar yaratib beradi.

Iqtidorli o'quvchilarni o'qitishda o'qituvchilarni qo'llaydigan usullari:



- **Individual yondashuv-** har bir o'quvchi boshqacha fikrlaydi, shu holatdan kelib chiqib u bilan alohida shug'ullanish kerak. O'qituvchi har bir o'quvchining qiziqishga qarab topshiriq, loyiha va mashq berish kerak. Bu o'quvchining yanada shaxsiy rivojlantirishini kuchaytiradi.

- **Chuqur bilim berish-** iqtidorli o'quvchilarga oddiy bilim yetarli emas. Ularga murakkab, keng ma'lumotga ega, chuqur fikrlaydigan va eng asosiysi jamoada ishlashni o'rgatish kerak. Jamoada ishlashni o'rgatilsa u o'quvchi guruhlarga kirganda hayajonlanmaydi va jamoada o'zini qanday tutishni biladi.

- **Axloqiy qobiliyatni rivojlantirish-** iqtidorli o'quvchilar faqat aqlli bo'lishi kerak emas, balki odamiy, samimiy, axloqli, mehribon bo'lishi muhimdir. Sababi ko'p iqtidorli o'quvchilar yaxshi o'qimaydigan o'quvchilarni past qatlamda ko'radi va ularga nisbatan yaxshi muloqot qilmaydi. Bu esa u va tengdoshiga hurmatsizlik bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi ularni halollik, hurmat kabi insoniy qadriyatlar bilan rivojlantirish kerak.

Bularning barchasi iqtidorli o'quvchini o'qitishda o'qituvchini foydalanadigan usullaridir. Eng asosiysi, o'qituvchi o'quvchini o'z fikrini erkin ayta oladigan va yangilik yaratishdan qo'rqmaydigan qilib tarbiyalashi lozimdir. Shu orqali o'quvching iste'dodi yanada o'sadi va o'ziga va atrofidagi insonlarga munosabati o'zgaradi.

Iqtidorli o'quvchini rag'batlantirish va ruhiy qo'llab- quvvatlash.

Iqtidorli o'quvchilarni o'qitish davomida rag'batlantirish va ularni ruhiy qo'llab-quvvatlash juda muhim o'ringa ega. Chunki har bir o'quvchi o'z iste'dodini namoyon etishda ota- onasi, o'qituvchisi va atrofida qilarning e'tiboriga, iliq so'zlariga va ularning qo'llab- quvvatlashiga juda ham muhtoj bo'ladi. Iqtidorli o'quvchi yaqinlarni ishonchini oqlay olsa va ularni e'tiborlarni his qila olsa, u o'z ustida yanada ko'proq ishlaydi.

O'qituvchi o'quvchisini rag'batlantirish uchun uni maqtashi, sertifikatlar, kichik sovg'alar, darsda faol qatnashganini aytishi va uning ishlarni boshqalarga namuna sifatida ko'rsatishi bu o'quvchining yanada chuqur o'rganish hisni uyg'otadi va yanada chuqur o'rganishni istaydi.



Bunday qo'llab-quvvatlashlar juda ham muhimdir. Chunki har kunimiz biz istaganimizdek ketmaydi. Ba'zida o'quvchilar muvaffaqiyatsizlik yokida tanqidga duch kelishi mumkin. Ana shunday paytda o'qituvchining maqtovlari o'quvchi uchun katta ishonch uyg'otadi va bu muvaffaqiyatsizlikga uchraganida ham u orqaga chekinmaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bu kabi iqtidorli o'quvchilar jamiyatimizning eng muhim boyligidir. Ular kelajakda il-fan, madaniyat sa'nat boshqa sohalarda yurtimiz taraqqiyotiga katta hissa qo'shadigan yoshlar hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday o'quvchilarni erta aniqlab, ularning qobiliyatlarini yanada rivojlantirib va to'g'ri yo'naltirish o'qituvchining asosiy vazifasidir.

O'qituvchi faqat bilim beruvchi inson emas, balki iqtidorlarni kashf etuvchi, qo'llab-quvvatlovchi, yo'nalish beruvchi va bizni hayotga tayyorlovchi insondir. O'qituvchilarning rag'batlantirishi, qo'llab-quvvatlashi, ilhom bag'ishlashi orqali har bir iqtidorli o'quvchi yanada baland cho'qqilarga yuksaladi.

Agarda har bir iqtidorli o'quvchi o'z iqtidori ustida ishlab uni yanada rivojlantirsa o'zi, yaqinlari, o'qituvchilari, ota-onasi hammalarni xursand qiladigan har doim izlanishdan to'xtamaydigan inson bo'lib yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xaydarov. S.A. (2025). Oilaviy tarbiyada va maktab tarbiyasida yuzaga keladigan risklar. 16-son. 9-11.
2. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
3. Хайдаров С. (2025). Oilalar da farzand tarbiyasiga ruhiy ta'sir etkazish. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
4. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
5. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.



6. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.
7. Khaydarov S.A. (2025). On analysis of family factors and social creativity issues in the study of the psychological portrait of educational institutions' leaders. Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology ISSN: 1001-4055 Vol. 46 No. 2.
8. Хайдаров С. (2025). Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati. 3 (9). 261-265.